



Methods of developing intensive training of primary class teachers in continuous professional development

Shalola NURMATOVA¹

Tashkent Region National Center for Training Pedagogues in New Methods

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2024

Received in revised form

10 January 2024

Accepted 25 February 2024

Available online

25 May 2024

Keywords:

intensive training,
independent education,
4-K skills,
innovation,
method,
algorithmization.

ABSTRACT

This article presents examples of intensive teaching methods and methodology for their implementation in courses for the continuous professional development of primary school teachers.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2-pp189-193>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Uzluksiz kasbiy malaka oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intensiv mashg'ulotlarini rivojlantirish usullari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

intensiv o'qitish,
mustaqil ta'lim,
4-K ko'nikmalari,
innovatsion,
metod,
algoritmlashtirish.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy malakasini oshirish kurslarida intensiv o'qitish metodlari va uni amalga oshirish metodikasidan namunalar keltirilgan.

¹ Senior teacher, Department of Pre-School and Primary Education, Tashkent Region National Center for Training Pedagogues in New Methods.

Методы развития интенсивного обучения учителей начальных классов в процессе непрерывного профессионального обучения

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

интенсивное обучение,
независимое обучение,
навыки 4-К,
инновации,
метод,
алгоритмизация.

В данной статье приведены примеры методов интенсивного обучения и методики их реализации на курсах повышения непрерывной профессиональной квалификации учителей начальных классов.

Intensiv o'qitish metodlari tinglovchi-o'qituvchilarda ta'limning mazmunini mustaqil o'zlashtirib olish va o'z fikr, xulosalarini shakllantirish uchun motiv hosil qiladi va quyidagi ko'nikmalarni shakllantirib, rivojlantirib boradi: o'z oldiga maqsad qo'yish; o'z fikr-mulohazalarini bayon etish hamda uning to'g'riligini boshqalarga isbotlash; yakka va juftlikda ishlash; hamkorlikda ishlash; ijodiy fikrlash; ma'lumotlarni tahlil qilish; xulosalar chiqarish; o'z tajribasini namoyish qilish; berilgan imkoniyatlardan eng ma'qulini tanlash.

Har bir intensiv o'qitish metodlariga asoslangan dars oldindan tayyorlangan modullar va loyihalarga muvofiq o'tkaziladi. Buning uchun intensiv o'qitish metodlarini dars mavzusining xususiyatlari va ko'zlangan maqsadga muvofiq tanlanishi ilmiy prognoz qilingan natijaga erishish imkonini beradi. Quyida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy malakasini oshirish kurslarining "Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari" va "Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda 4-K ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi" modullari bo'yicha tashkil qilingan mashg'ulotlarda foydalanishga doir intensiv o'qitish metodlari va uni amalga oshirish metodikasidan namunalar keltiramiz.

"Tahlil va sintez" metodi ("Analysis and synthesis" method) – masala yechimining alternativ variantlarini jadval ko'rinishida ro'yxati tuzilib, ushbu yechimlarning bir-biriga yaqinlari, mantiqan o'xshashlari va ular o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlanadi, umumlashtirilib turli yangi variantlar hosil qilinadi. Bu uslubda o'quv jarayoni aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish asosida amalga oshiriladi.

O'qitish bosqichlari:

birinchi usul: tinglovchi-o'qituvchining o'quv mazmuni va maqsadlarini faollashtirish;

ikkinchi usul: faoliyatning maqsadga yo'naltirilgan asoslari sxemasini anglash: bajarish uslubi ko'rsatilmagan holda, taklif etiladigan aniq faoliyat namunasi; faoliyatni to'g'ri bajarishni to'liq va mukammal ko'rsatilishi; olingan bilimlar asosida tinglovchi-o'qituvchi tomonidan faoliyatning maqsadga yo'naltirilgan asoslarini mustaqil yaratilishi;

uchinchi usul: tashqi shakl ko'rinishidagi faoliyat (model, sxema, chizmalar); faoliyatni tashqi nutqiy umumlashtirish; ichki nutq darajasida faoliyatni umumlashtirish; faoliyatni interiorizatsiyalash – ichki rejali aqliy bajarish faoliyatiga o'tish.

Afzalliklari: o'qitish jarayonini individuallashtirish; namunalarni ko'rsatish hisobiga uquv va malakalarni shakllantirish vaqtini kamaytirish; algoritmlashtirish hisobiga faoliyatni yuqori darajada avtomatlashtirish; faoliyat sifatini individual nazorat qilish imkoniyati; o'qitish uslubiyotini tezkor to'g'rilash, tuzatish.

Kamchiliklari: nazariy bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatining cheklanganligi; uslubiy yordam ko'rsatishning murakkabligi; ijodiy faoliyat bo'yicha fikran va rivojlanlantiruvchi qobiliyatga ega bo'lish imkoniyatini zarurligi.

Metodning maqsadi: tinglovchi-o'qituvchilarda muammoning mohiyatini aniqlash, o'z fikrlarini aniq bayon qilish, uni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'tkazish tartibi: masala yechimining alternativ variantlarini jadval ko'rinishida ro'yxati tuzilib, ushbu yechimlarning bir-biriga yaqinlari, mantiqan o'xshashlari va ular o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlanadi, umumlashtirilib turli yangi variantlar hosil qilinadi. Masalan: guruhlardan birining bajargan topshirig'i taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

Topshiriq: so'zning morfemik tarkibini aniqlang.

O'tkazish tartibi: tinglovchi-o'qituvchilar yakka tartibda so'zning morfemik tarkibini o'rganish yuzasidan nazariy ma'lumotlarni yozadilar:

Morfema – so'zning eng kichik, bo'linmaydigan ma'noli qismi.

Morfema ikki turga bo'linadi.

O'zak morfema – so'zda albatta qatnashadigan va leksik ma'no anglatadigan morfema.

Affiksial morfema – mustaqil holda leksik ma'no anglatmay, so'zning leksik va grammatik ma'nolari shakllanishi uchun xizmat qiladigan morfema.

Affiksial morfema ikki turga bo'linadi.

So'z yasovchi qo'shimchalar so'zning leksik ma'nosini shakllantiradi.

Shakl yasovchi qo'shimchalar so'zlarni grammatik jihatdan shakllantirib, turli grammatik ma'nolarni ifodalaydi.

kichik guruhlarda bir-biriga yaqin, mantiqan o'xshash va bog'lanishli nazariy ma'lumotlar jadval ko'rinishida ketma-ketlikka keltiriladi;

umumlashtiriladi;

tinglovchi-o'qituvchilar tomonidan ketma-ketlikda umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida so'zning morfemik tarkibini o'rganishga doir mustaqil ishlar bajariladi.

Taqdimot o'tkaziladi.

“Kundaliklar” metodi (“Diaries” method) – ma'lum vaqt oralig'ida guruhning har bir a'zosi tomonidan tug'ilgan g'oyalari yozib boriladi va ular guruhda tahlil qilinib, bitta o'rtacha fikrga kelinadi.

Metodning maqsadi: tinglovchi-o'qituvchilarda yakka va jamoaviy ijodiy faoliyat ko'nikmalarini, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, turli shakldagi ijodiy faoliyatni egallash malakalarini hosil qilish.

O'tkazish tartibi:

birinchi bosqich: guruhning har bir ishtirokchisi yakka holda ishlash uchun andragog-o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan tarqatma materiallardan birini tanlab oladi. Tarqatma materialda mavzu yuzasidan tayanch tushunchalarning nomi yozilgan. Tinglovchi yakka tartibda tayanch tushunchalar haqida bilganlarini jadval ko'rinishida shakllantiradilar.

ikkinchi bosqich: tinglovchi-o'qituvchilar yakka tartibda mavzuga doir tayanch tushunchalar ishtirokida kundalik faoliyatlarini og'zaki va yozma tarzda ifodalaydilar. Mazkur vazifa jamoaviy tarzda ham amalga oshirilishi muki.

uchinchi bosqich: tinglovchi-o'qituvchilarning mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashga doir savol-javob o'tkaziladi.

to'rtinchi bosqich: tinglovchi-o'qituvchilar faoliyatini baholash.

Tadqiqotimiz muammosiga doir adabiyotlar tahlili va kuzatishlarimiz natijasidan ko'rinadiki, katta yoshdagilar uchun o'quv faoliyatini loyihalash va tashkil qilishda eksperimental o'rganish, o'z-o'zini boshqarish, transformatsion ta'lim tamoyillariga asoslanish uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Shuningdek, bizning nazarimizda, pedagoglar uchun loyihalar, amaliy mashg'ulotlar, turli o'quv seminarlari, treninglar, tajribaga ega bo'lgan boshqa hamkasblari bilan hamkorlik qilish imkoniyatini yaratish orqali muqobil nuqtai nazarlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish uzluksiz kasbiy rivojlanishning davomiyligi va natijaviyligini ta'minlaydi.

Intensiv o'qitish metodlariga asoslangan intensiv mashg'ulotlar tizimi –bu assimilyatsiya darajalariga bosqichma-bosqich ko'tarilishdir. Intensiv mashg'ulotlar orqali insonning professional imkoniyatlarini takomillashtirish uchun quyidagi usullarni o'z ichiga olgan intensiv o'qitish metodlarining asosiy elementlarini ajratib ko'rsatish mumkin: kasbiy shaxsning yashirin psixofiziologik imkoniyatlarini, ularning namoyon bo'lishi va faollashuv sharoitlarini ochish va tadqiq qilish; shaxsiyatning bilish imkoniyatlarini faollashtirish (o'zini o'zi boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlari bo'yicha fikr-mulohazalardan foydalangan holda o'zini o'zi boshqarish va takomillashtirish usullaridan foydalanish); ijodiy faoliyatni kompleks faollashtirish (faollashtiruvchi ijodiy trening shakllaridan foydalangan holda).

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, intensiv o'qitish jarayoni orqali ta'lim ma'lumotlarini o'zlashtirish darajasiga qarab bosqichma-bosqich ko'tariladi ("izlash", "tanlab olish", "ko'paytirish", "qo'llash" va "ijodkorlik" orqali "tayyorlik" darajasidan). Bunda intensiv o'qitish metodlari turli xil ta'lim faoliyati turlari (o'zini o'zi boshqarish, axborotni rag'batlantirish, dinamik o'qish, treninglar va ijodiy guruhlarining hamkorlik ishlari) asosida tashkil etiladi. Bunday treninglar kattalar ta'limini akme muhit asosida tashkil etishda samarali amalga oshiriladi. Intensiv o'qitish zamonaviy akmeologik va axborot texnologiyalari asosida mustaqil ta'lim faoliyatini kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. An'anaviy o'qitishdan farqli o'laroq, intensiv ta'lim shaxsning o'zini o'zi takomillashtirish va uyg'un rivojlanishiga qaratilgan ta'lim faoliyatining yangi turlarini o'z ichiga oladi. Intensiv o'qitish shaxsni psixo-o'zini o'zi boshqarish usullaridan foydalangan holda axborot to'siqlarini bartaraf etish, dinamik o'qish, axborotlar bilan oqilona ishlash usullari, treninglar, situatsion mashqlar, ijodiy hamkorlik ishlarini tashkil etish kabi o'quv faoliyat turlarini o'zlashtirish qobiliyatini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son "2022 — 2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" Farmoni.

2. Azixzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006. – 159 b.

3. Gegenfurtner A. Bernhard Schmidt-Hertha and Paul Lewis. Digital technologies in training and adult education. International Journal of Training and Development 24:1. 17 February 2020. ISSN 1360-3736. doi: 10.1111/ijtd.12172.

4. Konyukhova T.V., Konyukhova Y.T., Goncharenko M.V. Formation of career planning competence in the context of representing the image of the future. // Vektory blagopoluchiya: ekonomika i sotsium = Well-Being Vectors: Economy and Society. 2019. №2 (33). – P. 46–62. DOI: 10.18799/26584956/2019/2(33)/974.

5. Radjiyev A.B. Xalq ta'limi tizimida rahbar xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni boshqarish samaradorligini oshirish (umumta'lim maktab direktorlari misolida): ped. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. ... avt. –T.: 2020. – 61 b.

6. Raximov B. O'quv mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish va o'tkazish texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya. 2016. – 136 b.